



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



MAQSUD SHAYXZODA TARJIMA USLUBINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Rafiyeva Ruxshona To'lqinovna

TDTrU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tarjimashunosligi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Maqsud Shayxzodaning badiiy tarjima faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjimashunoslikning asosiy muammolari — badiiy ekvivalentlik, adekvatlik, milliy koloritni saqlash hamda poetik shakl va mazmun uyg'unligi masalalari Shayxzoda tarjimalari misolida yoritiladi. Asl va tarjima matnlarni qiyosiy tahlil qilish orqali tarjimonning individual uslubi, qo'llagan tarjima strategiyalari va lingvopoetik xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Shayxzoda tarjimalarining nazariy va amaliy ahamiyatini belgilash, shuningdek, zamonaviy tarjima amaliyoti uchun ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Maqsud Shayxzoda, badiiy tarjima, tarjimashunoslik, ekvivalentlik, adekvatlik, milliy kolorit, lingvopoetika, tarjima uslubi, poetik tarjima.*

Аннотация: *В статье анализируется переводческая деятельность Максуда Шейхзаде, занимающего значимое место в развитии узбекского переводоведения. В центре внимания находятся актуальные проблемы художественного перевода, такие как эквивалентность, адекватность, сохранение национального колорита, а также единство формы и содержания. На основе сравнительного анализа оригинальных и переводных текстов выявляются индивидуальные особенности переводческого стиля Шейхзаде, применяемые им переводческие стратегии и лингвопоэтические характеристики. Результаты исследования способствуют определению теоретической и практической ценности переводческого наследия Максуда Шейхзаде и его значения для современной переводческой практики.*

Ключевые слова: *Максуд Шейхзаде, художественный перевод, переводоведение, эквивалентность, адекватность, национальный колорит, лингвопоэтика, переводческий стиль.*

Abstract: *This article examines the translation activity of Maksud Sheikhzade, who occupies an important place in the development of Uzbek translation studies. The research focuses on key issues of literary translation, including equivalence, adequacy, preservation of national color, and the unity of form and content. Through a comparative analysis of source and target texts, the study identifies the distinctive features of Sheikhzade's translation style, his translation strategies, and linguopoetic characteristics. The findings highlight the theoretical and practical significance of Maksud Sheikhzade's translation heritage and its relevance to modern translation practice.*

Keywords: *Maksud Sheikhzade, literary translation, translation studies, equivalence, adequacy, national color, linguopoetics, translation style.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



KIRISH. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot tobora kuchayib borar ekan, tarjimon faoliyati jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy adabiyotlarning o‘zaro boyishida, xalqaro madaniy muloqotning rivojlanishida badiiy tarjimaning o‘rni beqiyos. Shu jihatdan tarjimashunoslikda ekvivalentlik, adekvatlik, milliy koloritni saqlash kabi masalalar dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

O‘zbek tarjima maktabi taraqqiyotida Maqsud Shayxzoda alohida o‘rin tutadi. U nafaqat yirik adib va shoir, balki mohir tarjimon sifatida ham jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan ijodkordir. Shayxzodaning Shekspir, Pushkin, Lermontov singari adiblar asarlariga qilgan tarjimalari o‘zbek adabiy tilining badiiy imkoniyatlarini ochib berishgaga xizmat qilgan.

Shayxzoda tarjimalarida badiiy mazmun va shakl uyg‘unligini ta‘minlash, poetik obrazlar va ritmni saqlab qolish, shu bilan birga, milliy ruhni o‘zbek kitobxoniga yaqinlashtirish masalalari ustuvor bo‘lgan. Bu holat uning tarjima faoliyatini tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Maqsud Shayxzoda tarjima uslubining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, uning badiiy tarjimada ekvivalentlikni ta‘minlash borasidagi yondashuvlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda Shayxzodaning “Mis chavandoz” tarjima asari lingvopoetik va qiyosiy-tahliliy metodlar asosida o‘rganiladi.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur tadqiqotda Maqsud Shayxzodaning badiiy tarjima faoliyatini ilmiy asosda o‘rganish maqsadida bir qator nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy tarjimashunoslik nazariyalari hamda badiiy matn tahliliga doir ilmiy yondashuvlarga tayandi.

Asl va tarjima matnlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun qiyosiy-tahliliy metod qo‘llanildi. Ushbu metod orqali Shayxzoda tarjimalarida mazmuniy va shakliy ekvivalentlikning qay darajada ta‘minlangani, tarjima jarayonida yuzaga kelgan o‘zgarishlar va transformatsiyalar tahlil qilindi.

Tarjima matnining badiiy xususiyatlarini aniqlashda stilistik tahlil metodidan foydalanildi. Bu metod yordamida poetik obrazlar, badiiy tasvir vositalari, ritm va ohangning qayta yaratilish darajasi o‘rganildi.

Shuningdek, lingvopoetik tahlil asosida Shayxzoda tarjimalaridagi leksik-semantik birliklar, frazeologizmlar hamda milliy koloritni ifodalovchi unsurlar tahlil qilindi. Bu jarayonda tarjimonning individual uslubi va badiiy tafakkur aniqlashga harakat qilindi.

Tadqiqot davomida tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari — ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima strategiyalari va tarjima transformatsiyalari konsepsiyalaridan foydalanildi. Empirik material sifatida Maqsud Shayxzoda tomoni dan tarjima qilingan jahon adabiyoti namunalaridan biri hisoblangan A.S.Pushkinning “Mis chavandoz” liro-epik dostonidagi parchalar tahlil obyekti sifatida ishlatildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



| Original matn | Maqsud Shayxzoda tarjimasi | So`zma-so`z tarjima |
|--|---|---|
| Пришёл Евгений молодой... Мы будем нашего героя Звать этим именем. Оно Звучит приятно; с ним давно Мое перо к тому же дружно. Прозванья нам его не нужно. | Yevgeniy atalsin bizning qahramon, Bu ism yoqadi, shirin, Qalamim bu nom-la eski qadrdon, Ammo familyasi - qolsin yashirin. | Yosh Yevgeniy keldi... Qahramonimizni shu nom bilan chaqiramiz. Bu yoqimli eshitaladi; Mening qalamim u bilan uzoq vaqtdan beri qadrdon. Bizga uning taxallusi kerak emas. |
| Но долго он заснуть не мог В волненье разных размышлений. | Ko`p qiynaldi, bo`lmay uyqu tayini, Har xil andishaga, xayolga botdi; | Lekin u turli fikrlar hayajoni ichida uzoq vaqt uxlay olmadi. |
| Евгений тут вздохнул сердечно И размечтался, как поэт: | Shu chog`da shalpayib ketdi yuragi, U xayol surardi misoli shoir, | Yevgeniy chuqur xo`rsinib, shoir kabi tush ko`ra boshladi: |
| И станем жить, и так до гроба Рука с рукой доедем мы оба, И внуки нас похоронят... | Biz qo`sha qarirmiz go`rgacha yo`ldosh, O`lsak nabiralar ko`zdan to`kib yosh Ko`mishar bizlarni "rahmatlik" deya... | Va biz qabrgacha shunday yashaymiz. Ikkalamiz ham qo`l ushlab u yerga boramiz Va nabiralarimiz bizni ko`madilar. |
| Пожитки бледной нищеты, Грозой снесенные мосты, Гроба с размытого кладбища Плывут по улицам! | Faqir oilaning shara-barasi, Yengil aravaning charxi- parrasi, To`lqinlar go`rlardan ochgan tobutlar, Shaharda suzmoqda! | Xira qashshoqlikning buyumlari, Bo`ron vayron qilgan ko`priklar, Yuvilgan qabristondan tobutlar Ko`chalarda suzyapti. |
| «С божией стихией Царям не совладеть» | «Ollohning qahriga shohlar ham ojiz!» | «Shohlar Xudo unsurlarini nazorat qila olmaydilar» |
| Плескал на пристань, ропща пени И бьясь об гладкие ступени, Как челобитчик у дверей Ему не внемляющих судей. | Ko`pirib, arz qilib irillar edi, Tekis zinalarga urilar edi, Mensimas sudyadan kutib bir "Labbay" Eshikdan poylagan arizachiday. | Eshik oldida turgan arizachi kabi Unga quloq solmagan sudyalor eshigi oldidagi arizachi kabi kemalar to`xtaydigan joyga shaloplab zorlanardi. |
| Кумир с простертою рукою Сидел на бронзовом коне. | Bir qo`lin qulochkash qilganday kerib Ko`rinar mis otni mingan vallamat. | |





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yuqorida keltirilgan misollar Aleksandr Pushkinning “Mis chavandoz” asaridan olingan parchalar hamda Maqsud Shayxzoda tarjimalari asosida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Shayxzoda tarjima jarayonida so‘zma-so‘z aniqlikdan ko‘ra badiiy-ekvivalent ifodani ustuvor qo‘yadi va matnning poetik ruhi hamda obrazlar tizimini o‘zbek kitobxoniga yaqinlashtirishni maqsad qiladi.

Birinchi misolda “Пришёл Евгений молодой...” satrining “Yevgeniy atalsin bizning qahramon” tarzida berilishi tarjimonning narrativ strategiyasini ko‘rsatadi. Aslyatda voqea bayoni hukm sursa, tarjimada muallifona murojaat, ya’ni o‘quvchi bilan bevosita mulqot ohangi kuchaytirilgan. Bu usul o‘zbek mumtoz va zamonaviy epik an‘analariga mos keladi. Shuningdek, “Прозванья нам его не нужно” jumlasining “Ammo familyasi – qolsin yashirin” tarzida poetik talqini mazmunni saqlagan holda ohangdorlik va qofiyani ta’minlaydi. Demak, Shayxzoda formal aniqlikdan ko‘ra funksional moslikni tanlaydi.

“Но долго он заснуть не мог...” parchasida ham sintaktik soddalashtirish va emotsional kuchaytirish kuzatiladi. “Ko‘p qiynaldi, bo‘lmay uyqu tayini” satri originaldagi psixologik holatni ixcham va ta’sirchan shaklda ifodalaydi. Bu yerda tarjimon ichki monologni milliy ruhda qayta yaratadi. Demak, tarjimada transformatsiya faol qo‘llanilgan.

Romantik orzular ifodalangan “И станем жить...” bandida Shayxzoda qo‘shimcha emotsional birliklar kiritadi: “O‘lsak nabiralar ko‘zdan to‘kib yosh...” Aslyatda nisbatan betaraf ohang bo‘lsa, tarjimada hissiylik kuchayadi. Bu esa o‘zbek poetik tafakkuriga xos lirizm va dramatismning ustuvorligini ko‘rsatadi. Tarjimon mazmunni kengaytirish (ekspansiya) usulidan foydalangan.

Tabiiy ofat tasviri berilgan “Пожитки бледной нищеты...” parchasi tarjimasida obrazlilik saqlangan bo‘lsa-da, ayrim detallar milliylashgan. “Shara-barasi”, “charxi-parrasi” kabi birliklar fonetik uyg‘unlik va ritmni kuchaytiradi. Bu Shayxzodaning she’riy tarjimada musiqiylikni birlamchi omil sifatida ko‘rganini anglatadi. Natijada semantik aniqlik qisman erkinlashgan bo‘lsa-da, poetik ta’sirchanlik ortgan.

“С божией стихией Царям не совладеть” satrining “O‘llohning qahriga shohlar ham ojjiz!” tarzida berilishi esa diniy-falsafiy mazmunni milliy mentalitetga mos ravishda talqin qilish namunasidir. “Bojiya stixiya” iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki “O‘llohning qahri” shaklida berilib, kuchli ekspressiv-ekvivalent yaratilgan. Bu yerda tarjimon semantik moslashtirish (adaptatsiya) usulini qo‘llagan.

Oxirgi misolda — “Кумир с простертою рукою / Сидел на бронзовом коне” — satrlarining “Bir qo‘lin quloqlash qilganday kerib / Ko‘rinar mis otni mingan vallamat” tarzida berilishi obrazni dinamiklashtiradi. “Vallamat” so‘zi orqali haykal qiyofasiga baholovchi ohang yuklangan. Bu esa tarjimonning talqinchi sifatidagi subyektiv pozitsiyasini ko‘rsatadi.

Maqsud Shayxzoda tarjima faoliyati uning nafaqat yirik shoir va dramaturg, balki chuqur nazariy tafakkurga ega tarjimon bo‘lganini ham tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan Aleksandr Pushkinning “Mis chavandoz” asari tarjimasida shuni aytish



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



mumkinki, Shayxzoda tarjimada formal aniqlikdan ko'ra badiiy adekvatlikni ustuvor deb biladi.

Uning tarjima uslubining nazariy jihati funksional ekvivalentlik, poetik ta'sirni saqlash va milliy mentalitetga moslashtirish tamoyillariga asoslanadi. Shayxzoda tarjimani oddiy ko'chirish emas, balki ijodiy qayta yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi. Shu bois u semantik transformatsiya, stilistik almashtirish, kengaytirish va qisqartirish kabi usullardan erkin foydalanadi.

Amaliy jihatdan esa Shayxzoda she'riy tarjimada ritm, qofiya, ohang va obrazlilikni birlamchi mezon sifatida qo'llaydi. U aslyat ruhini saqlagan holda, matnni o'zbek badiiy tafakkuri va poetik an'alariga uyg'unlashtiradi. Natijada tarjima mustaqil badiiy qiymat kasb etadi va o'quvchiga tabiiy hamda ta'sirchan yetib boradi.

Xulosa qilib aytganda, Maqsud Shayxzodaning tarjima uslubi nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan bo'lib, u o'zbek tarjimashunosligida badiiy ekvivalentlik va ijodiy yondashuv tamoyillarini mustahkamlagan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Медный всадник / А. С. Пушкин — «Public Domain», 1837
2. “Танланган асарлар” / А.С.Пушкин - «ЎЗДАВНАШР», 1949, 263-278-б.
3. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти, 1978 й.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari (Birinchi kitob). – T.: O'zbekiston, 2008. – 536 b.

